

HAYOTGA QARSHI JINOYATLARDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA MANFAATLARI MUHOFAZASIGA OID AYRIM MULOHAZALAR



Ashurova Nilufar O'ktamovna

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan hayotga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Voyaga yetmagan shaxslarning hayotiga qarshi jinoyatlarda qonunchilikning huquqiy yondashuvni belgilashi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi tahlil qilinib, unda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan hayotga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, ushbu holat alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida shakllanmagani qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlatlar qonunchiligidagi ijobiy tajribalarni hisobga olgan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, hayotga qarshi jinoyatlar, qotillik, jinoyat qonunchiligi, og'irlashtiruvchi holat, huquqiy himoya.

Аннотация: В статье анализируются вопросы ответственности за преступления против жизни в отношении несовершеннолетних. Рассматривается законодательное определение правового подхода к преступлениям против жизни несовершеннолетних, анализируется действующее уголовное законодательство Республики Узбекистан, в котором хотя и установлена ответственность за преступления против жизни в отношении несовершеннолетних, но отмечается, что данное обстоятельство не сформировалось как отдельное отягчающее обстоятельство. С этой точки зрения разработаны практические предложения по совершенствованию национального законодательства с учетом положительного опыта законодательства зарубежных стран.

Ключевые слова: несовершеннолетние, преступления против жизни, убийство, уголовное законодательство, отягчающее обстоятельство, правовая защита.

Abstract. This scientific article analyzes the issues of liability for crimes against the life of minors from a legal perspective. The article examines how legislation defines the legal approach to crimes against the life of minors. Also analyzes the current criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, which establishes liability for crimes against the life of minors, but notes that this circumstance has not been formed as a separate aggravating circumstance. From this point of view, taking into account the positive experience of the legislation of foreign countries, practical proposals have been developed for improving national legislation. The results of the article will serve to strengthen the legal protection of minors, harmonize national legislation with the norms of international law and the experience of developed countries.

Keywords: minors, crimes against life, murder, criminal legislation, aggravating circumstance, legal protection.

inson hayotining daxlsizligi jamiyat va davlat uchun eng yuksak qadriyat hisoblanadi.

Xususan, voyaga yetmagan shaxslarning hayotiga tajovuz qilish nafaqat individual shaxs huquqlarini, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini ham izdan chiqaradi. Shu bois dunyo

tajribasida bolalarning hayotini himoya qilish alohida huquqiy kafolatlar orqali ta'minlanadi. Jinoyat huquqi tizimida esa bu kafolatlar qasddan odam o'ldirish yoki ehtiyotsizlik orqasidagi o'lim holatlarida sanksiyalarni kuchaytirish orqali ifodalanadi.

Milliy huquq tizimida ham voyaga yetmaganlarning hayoti ustuvor tartibda muhofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida qasddan odam o'ldirishning og'irlashtiruvchi holatlari qatorida jabrlanuvchining o'jiz ahvoldaligi bo'lishi nazarda tutilgan bo'lsa, zamonaviy huquqiy islohotlar natijasida bu normalar yanada aniqlashtirilib, bolalar hayotini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu esa qonun ijodkorligida inson huquqlari, ayniqsa, bolalar huquqlari davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida qaror topayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro huquq normalarida ham bolalarning hayotga bo'lgan huquqi alohida mustahkamlangan. Jumladan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi ishtirokchi davlatlarga bolalarni hayot va sog'liqqa xavf tug'diruvchi har qanday jinoyat tajovuzdan muhofaza qilish bo'yicha majburiyat yuklaydi [1]. Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotida esa bolalar hayotini himoya qilish nafaqat jazo orqali, balki davlat organlari tomonidan profilaktika, nazorat va samarali tergov majburiyatlari bilan ta'minlanishi yo'lga qo'yilgan [2].

Jinoyat huquqida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etiladigan odam o'ldirish holatlarini alohida tartibda belgilash ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu jinoyatlarning ijtimoiy xavfi yuqori. Chunki bolalar hayotiga tajovuz jamiyatning ma'naviy asoslariga zarba beradi va kelajak avlod taqdiriga xavf tug'diradi. Ikkinchidan, jazo sanksiyalarining kuchaytirilishi jinoyat profilaktikasida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda bolalar hayotining daxlsizligi haqida qat'iy huquqiy signal berilishi huquqiy madaniyatning oshishiga xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O'zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz qatori sizdek azm-u shijoatli farzandlarimiz bilan bog'liq holda ko'ramiz. Shu bois, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda" [3] deya ta'kidlagani, mamlakatimizda yoshlarga, xususan, voyaga yetmaganlarga bo'lgan munosabat naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

M.B.Tursunovanning fikriga ko'ra, "Xalqaro amaliyotda qabul qilingan "bolaga nisbatan zulm" atamasi o'zida "ehtiyotsiz munosabat" hamda "tashlab qo'yilganlik" tushunchalarini mujassam etadi. Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatish" [4; 96-b]. Mazkur fikr o'rinlidir, haqiqatan ham "bolalarga nisbatan zulm" tushunchasi butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi: "Zulm" yoki "...bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lish" – bolaning sog'ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya"[5].

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, har qanday holda ham jismoniy zo'ravonlik bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatning jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatida alohida muhim yo'nalish sifatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qatlamning huquqiy muhofazasi amaliy nuqtai nazardan takomillashib borishi lozim, deb hisoblaymiz. Jamiyatda yuz berayotgan voyaga yetmaganlarning hayoti, sog'lig'i, axloqi va normal rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotgan yangidan-yangi ijtimoiy xavfli qilmishlarning kriminalizatsiyasiga qonun chiqaruvchining e'tiborini qaratish va shu orqali huquqni qo'llovchi uchun aniq normativ qoidalarni mustahkamlash tadqiqot mavzusining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O.N.Bezrukova tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "jismoniy jazolash, qanchalik yengil bo'lmasin, ma'lum darajada og'riq yoki noqulaylik yetkazish maqsadida jismoniy kuch ishlatish orqali amalga oshiriladigan har qanday harakat – jazolash"dir [6; 35-b]. Ushbu fikrdan ma'lum bo'ladiki, bolaning sog'ligiga yetkazilgan jismoniy jarohat qanchalik arziyas ko'rinishda bo'lmasin, uning sog'lom rivojlanishiga qo'shimcha, fakultativ obyekt, ya'ni ruhiyatiga yetkazilgan zarar natijasida uning normal rivojlanishiga ta'sir etganligi va ayni paytda jamiyatning kelajagiga tahdid qilganligi bois uni huquqiy nuqtai nazarda cheklash muhim ahamiyat kasb etadi.

M.A. Musayevning tadqiqotlarida huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari zanjirida jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual viktin (yoshga doir) xususiyatlar o'zni yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlarga xos bo'lgan toifadagi shaxslar bilan viktimologik profilaktik ishlarni muntazam amalga oshirib borish zarurligini kuzatish mumkin [7; 38-b.]. Mazkur fikrlardan anglashiladiki, jinoyatlarda shaxsga qarshi jinoyatlar, ular orasida esa eng og'iri hayotga qarshi jinoyatlarda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiluvchi jinoyatlarning huquqiy tahlili alohida dolzarb sanaladi.

B.Dj. Axrorovning fikriga ko'ra, "Odam o'ldirishning obyekti nafaqat odamning hayotiy biologik jarayoni, balki odam uchun eng qimmatli bo'lgan ne'mat bilan bemaol foydalanishi, hayoti bilan ifodalanadigan ijtimoiy munosabat ham bo'ladi" [8; 208-b.]. Shuningdek, olim fikrlarini davom eta turib, aybdor o'zligi o'ziga ayon bo'lgan shaxsni qasddan o'ldirsa (onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishidan tashqari), uning qilmishi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Aybdorning harakatlarini 97-moddaning 2-qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilishda, o'z ahvol deganda, jabrlanuvchining fiziologik, ya'ni jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og'riq yoki behush holatda yoxud uyquda bo'lganligi, alkohol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastlik tufayli) o'zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko'rsatishga qodir emaslik yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o'z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi o'z ahvolda ekanligini anglagan bo'lishi shart.

Yuqoridagi fikrlar tahlilidan ma'lum bo'ladi, voyaga yetmaganga nisbatan qotillik jinoyatining sodir etilishi holatlarini kvalifikatsiya qilishda alohida band belgilanmagan, ya'ni voyaga yetmagan shaxslar o'zlarining o'zligi, o'zini himoya qilishni jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, bunday shaxslarga nisbatan sodir etilgan qotillik jinoyatlari alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida huquqiy baholanishi uchun faqatgina ularning juda yosh bo'lishi talabi mavjud.

Shu o'rinda savol tug'iladi, juda yosh deganda necha yosh tushuniladi? Ayrim hollarda voyaga yetmagan shaxslarning 14 hatto 16 yoshlilari ham o'zini himoya qilishda jismoniy imkoniyati judayam cheklangan bo'ladi. Shu bois normativ noaniqliklar yoki turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan normallarni diskret sharhlash va huquqni qo'llash faoliyatidagi noaniqliklar sababli voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan bunday qilmishlarni umumiy tartibda baholash, fikrimizcha, bunday toifadagi shaxslarning huquq va manfaatlariga ziddir.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son qonunining 13-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda diskretion vakolatlarining kengligi va noaniq hamda asossiz havolalarning qo'llanilishi vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida baholanishi belgilab qo'yilgan [9].

Xususan, qonun ijodkorligida ayni shunday noaniq va asossiz jumla (havoalar)ning qo'llanilishi, bundan tashqari, huquqiy normaning chegarasini belgilash imkonini bermaydigan, xususan "va boshqalar", "va hokazo" kabi normalarning qo'llanilishi huquqni qo'llovchilarga asossiz ravishda ko'rib chiqish doirasining kengaytirish imkonini beradi. Shu sababdan, noaniq va asossiz havoalar keltirilmasligi hamda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish tegishli davlat organlarining vakolat doirasida amalga oshirilishi zarur.

Misol uchun: normativ-huquqiy hujjatda "nazorat tadbiri rejali tekshirish davomida, ma'lum bir hududda (mintaqada) zararlanish o'chog'i aniqlanganda, mahsulot import qilinganda va boshqa holatlarda amalga oshiriladi" deya belgilangan bo'lsa, muammo: nazorat tadbiri amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlarning aniq chegarasi belgilab berilmaganligi, xususan, "va boshqa holatlarda" iborasi qo'llanilishi oqibatida tekshiruvchida asossiz ravishda, tekshirish obyekti yoki predmeti doirasiga taalluqli bo'lmagan nazorat-tekshiruvini amalga oshirish bilan bog'liq diskretion vakolatlar vujudga keladi [10].

Demak, qonunchilik va norma ijodkorligida mavhum va turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan so'zlar hamda jumalardan foydalanish mumkin emas.

Bizningcha, inson hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlarda, ya'ni Jinoyat kodeksining ayrim moddalarida yuqorida keltirilgani kabi turli xil talqin etilishi mumkin bo'lgan so'zlar va jumalar qo'llanilgan. Xususan, yuqorida tahlil qilishga uringanimiz hayotga qarshi eng og'ir turdagi jinoyat og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish jinoyatining mazkur "aybdorga ayon bo'lgan o'jiz ahvoldagi shaxsni" bandi hisoblanadi.

M.H.Rustambayevning xulosasiga asosan jabrlanuvchining o'jiz ahvolda ekanligini ko'rsatuvchi asosiy belgi – shaxsning hayotiga bo'lgan tajovuzni bartaraf eta olmasligi hisoblanadi [11; 175-b.]. Mazkur fikrga qo'shilish mumkin, haqiqatan ham o'jiz ahvolda bo'lgan shaxsning hayotiga qarshi tajovuzni qaytarish imkoniyati mavjud bo'lmasligi muhim belgi hisoblanadi. Biroq, tajovuzchining harakatlarini qaytarish imkoniyati masalasida turli xil fikrlar, xulosa yoki qarashlar mavjud.

A.Sh.Murodov mazkur imkoniyatni qaytarish holati yuz berishi yoki o'zaro olishuv holatida bir tarafning imkoniyati yaqqol ustunlik kasb etishi obyektning o'jiz ahvolda ekanligini asoslaydigan muhim element, degan fikrni ilgari suradi [12; 30-b.].

M.A.Abduxaliqov, Q.Payzullayev, Sh.Y.Abdugodirov yuqoridagi fikrlardan o'zgacharoq fikrni bildirishgan, ya'ni o'jiz ahvodalik holatini kvalifikatsiya qilishda aybdor ba'zan jinoiy harakatlarini amalga oshirish uchun maxsus vaqt, holat, joy yoki uslubni qo'llashga qulay sharoitni tanlaydi. Aybdor o'ziga ayon holatda, vaziyatda foydalanib qotillik jinoyatini sodir etsa, mazkur band bilan huquqiy baholash to'g'ri bo'lishini ta'kidlaydi [13; 142-b.].


Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, olimlarning bir guruhi kuchlar nisbatiga ko'ra, ya'ni o'zaro teng bo'lmagan kuchlarning o'zaro nisbatida yaqqol ustunlik ko'rinib turgan hollarda inobatga olinishini yoqlasalar, boshqa guruh olimlar bu borada maxsus vaqt, holat, joy yoki uslubni qo'llashga qulay sharoit borasidagi nazariyani yoqlaydilar.

Shuningdek, A.G.Babishevning fikriga ko'ra, o'jiz ahvoldagi deganda, jabrlanuvchining shunday

jismoniy yoki ruhiy holatini tushunish kerakki, u o'z hayotiga qilinayotgan suiqasdga qarshi harakat qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Mazkur holat voyaga yetmaganlik yoki keksalik, og'ir xastalik, uyqu holati, kuchli darajadagi mastlik va boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin [14; 32–35-b.]. Mazkur fikrga qo'shilamiz, biroq huquqni qo'llash amaliyoti bu borada nazariy qoidalarni ko'pincha tan olmasdan mustaqil huquqiy baho berish yo'lidan bormoqda.

Hayotga qarshi jinoyatlar, xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini sudlarda ko'rib chiqish statistikasiga e'tibor qaratamiz. Bu turdagi jinoyatlar 2020-yilda 377 ta qayd etilgan bo'lsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan qotillik jinoyatlarining 13 tasidan atigi 4 tasi (30,7 %) Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilingan. 2021-yilda jami 440 ta qotillik bilan bog'liq jinoyatlar sudlarda ko'rib chiqilgan bo'lsa, ulardan 21 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan va ularning 6 tasi yoki 28,5 foizi og'irlashtiruvchi holatda sodir etilgan, deb topilgan. 2022-yilda 422 ta qotillik jinoyatidan 19 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan bo'lib, ularning atigi 4 tasi yoki 21 foizi og'irlashtiruvchi holat sifatida huquqiy baholangan. 2023-yilda 358 ta qotillik va 18 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, shundan 10 tasi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholangan. 2024-yilda jami 402 ta qotillik jinoyati sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan va ularning 22 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan hamda mazkur jinoyatlarning 13 tasi yoki 59 foizi og'irlashtiruvchi holat sifatida huquqiy baholangan [15].

Yuqoridagi statik ma'lumotlar tahlilidan ma'lum bo'lmoqdaki, qotillik jinoyatlariga huquqiy baho berishda amaliyot o'z qoidalaridan kelib chiqib talqin qilmoqda va bu, o'z navbatida, jinoyatga oid huquqiy siyosatda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmoqda. Statistik ma'lumotlar tahliliga e'tibor qaratsak, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar ulushida qotillik jinoyatlari og'irlashtiruvchi holat sifatida jami jinoyatlarning kam sonli ulushidagina aks etmoqda (1-rasm).



1-rasm

Demak, huquqni qo'llash amaliyoti, o'z navbatida, Jinoyat kodeksining belgilagan normalariga ko'ra, ishni hal etmoqda va buni qonunga xilof kvalifikatsiya yoki xato, deb bo'lmaydi. Chunki norma-ning o'zi turlicha talqin etilish imkonini beruvchi mazmunga ega.

Bu yo'nalishda, ya'ni qotillik tarkibining tuzilishida jabrlanuvchining ojiz ahvoli bo'yicha tadqiqot olib borgan E.B.Doronina shunday xulosalarga kelgan. U "insonning ojiz holati va uning turlari nafaqat turli jinoyatlardan, jumladan qotillikdan jabr ko'rish xavfini keskin oshiradi, balki ba'zi hollarda aybdor shaxsning jinoyat sodir etish joyi, usuli va sharoitini tanlashini ham belgilab beradi" [16; 177-b.] deya ta'kidlaydi va shaxsni voyaga yetmaganligi uning ojiz ahvolda, deb baholashga asos bo'lmasligini asoslantirishga harakat qiladi. Demak, olimaning fikrlaridan anglashiladiki, voyaga yetmagan shaxs ayrim hollarda qotillik subyektiga faol qarshilik ko'rsata oladi va bu, o'z o'rnida, uning ojizligini anglatmaydi. Masalan, o'smirning hayotiga nisbatan qilingan tajovuzni ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan sodir etilgan deb topish unchalik ham to'g'ri emas.

Shu nuqtai nazardan bu borada yuqoridagi fikrlarga qisman qo'shilmiz, biroq xalqaro qonun hujjatlarida voyaga yetmagan shaxslarni bir xil termin, ya'ni "bola" deb yuritilishi lozimligi va bu boradagi tadqiqotlar shaxslarni 18 yoshga to'lguniga

qadar uning psixofiziologik holati kattalarnikiga nisbatan sezilarli ravishda ojiz bo'lishi ta'kidlangan.

M.X.Rustambayev bu borada "ojiz ahvol deganda, jabrlanuvchining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og'riq yoki behush holatda yoxud uyquda bo'lganligi, alkogol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastlik tufayli) o'zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko'rsatishga qodir emaslik yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o'z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo'lishi shart", deb ta'kidlaydi [17; 99–139-b.].

Yuqorida bunga o'xshash fikrlarni keltirgan edik, biroq ushbu ta'riflarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarorida berilgan tushuntirishlarni inobatga olgan holda xulosa qilinmoqda, ya'ni qarorning 8-bandida tushuntirish berilishicha, "aybdorning harakatlarini Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilishda, ojiz ahvol deb jabrlanuvchining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og'riq yoki behush

holatda yoxud uyquda bo'lganligi, alkohol, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli) o'zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko'rsatishga qodir emaslik yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o'z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi o'jiz ahvolda ekanligini anglagan bo'lishi shart.

Jabrlanuvchining alkogolli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida atrofdagi vaziyatni anglay olmaydigan darajada mastligi, uning o'jiz ahvolda bo'lgan deb tan olinishiga asos bo'lishi mumkin. Bunda jabrlanuvchini kim bu ahvolga solganligi ahamiyatga ega emas" [18].

Yuqoridagi qarorning ushbu qoidasini tahlil qiladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlik bu kvalifikatsion belgiga bevosita aloqasi yo'q. Faqatgina "juda yosh" ekanligi holati keltirilib, uni o'jiz deb baholashga asos bo'lishi mumkinligi ta'kidlanmoqda.

Shunday bo'lsa-da, shaxsga qarshi jinoyatlarda, ayniqsa, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoyatda alohida ijtimoiy xavflilik aks etishi ko'plab olimlarning xulosalarida bayon etilgan.

Jumladan, L.M. Ivanova bu borada olib borgan tadqiqotlarida insonning birinchi navbatdagi huquqlari hisoblangan hayotga bo'lgan huquqlarining jinoiy-huquqiy muhofazasida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilishi holati alohida og'irlashtiruvchi band sifatida qayd etilishi lozimligini ta'kidlaydi. Chunki voyaga yetmagan shaxs aksariyat holatda o'zini himoya qila olmaydigan darajada o'jiz, ya'ni kuchlar nisbati katta shaxslarga qaraganda kam bo'ladi, bundan tashqari, jinoyat sodir etayotgan shaxslar bunday shaxslarga nisbatan jinoyat sodir etayotganida boshqa subyektlarga nisbatan shafqatsizlarcha harakat qilishi bilan ajralib turadi [19; 33-b.].

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilamiz, haqiqatan ham voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan hayotga qarshi jinoyatlarni umumiy tarzda kvalifikatsiya qilishda jinoyat huquqining prinsiplariga zid bo'lgan jihatlar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Jumladan, odillik prinsipiga muvofiq, faqatgina jazoni odilligi bilan bog'liq hollarda yuqoridagi faktorlarni inobatga olmagan holda umumiy jihatdan, nisbatan yengil sanksiyalar qo'llanishi holati jazoning odilligiga zid hisoblanadi.

Bizningcha, hayotga qarshi jinoyatlarning voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan holatlari alohida og'irlashtiruvchi bandlarda aks ettirilishi lozim. Mazkur g'oyani amaliyotga joriy etishning bir qancha asoslari mavjud. Xususan:

birinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga muvofiq, davlatning amalga oshirayotgan siyosatida bolalarni ularga nisbatan sodir etiladigan har qanday ko'rinishdagi tajovuzdan himoya qilish majburiyati mavjudligi;

ikkinchidan, voyaga yetmagan shaxs aksariyat holatda o'zini himoya qila olmaydigan darajada o'jiz, ya'ni kuchlar nisbati katta shaxslarga qaraganda kam bo'ladi;

uchinchidan, bu turdagi jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslar bolalarga nisbatan jinoyat sodir etayotganida nisbatan shafqatsizlarcha harakat qilishi, jinoiy motivi ijtimoiy jihatdan o'ta xavfli ekanligini anglatishi bilan ajralib turadi;

to'rtinchidan, qonunchilikda bunday jinoyatlar og'irlashtiruvchi holat sifatida alohida belgilanishi jinoyat sodir etish niyatida bo'lgan shaxs jazo og'irroq bo'lishini anglagan holda bunday harakatlardan tiyilishi uchun profilaktik jihatdan xizmat qiladi;

beshinchidan, bu turdagi jinoyatlar uchun qonun normalarini aniq va bir xilda qo'llanilishiga imkon beradi;

oltinchidan, "o'jiz ahvoldagi" "nochor shaxs" jumalari Jinoyat kodeksida aniq ta'rif berilganligi bois, amaliyotda turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan diskret xususiyat kasb etayotganligi va boshqalar.

Bu borada xorij davlatlarining qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, jumladan Fransiya Jinoyat kodeksi (Pénal Code)ga ko'ra, 221-modda va 221-4-modda jabrlanuvchi 15 yoshdan kichik bo'lsa og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan. Bu premeditatsiyaga teng vaziyatda yoki qotillikning maxsus shartli turi bilan birlashgan holatda bo'lib, uning jazosi umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin [20].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 105-moddasida qasddan odam o'ldirish jinoyatining og'irlashtiruvchi holatida "Aybdor uchun o'jiz holatda ekanligi aniq bo'lgan voyaga yetmagan yoki boshqa shaxsga nisbatan, shuningdek odam o'g'irlash bilan bog'liq holda sodir etilgan"ligi alohida ikkinchi qismning "b" bandida aks etgan [21].

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining shaxsga qarshi jinoyatlar bobiga quyidagicha o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

«97-modda. Qasddan odam o'ldirish»

2-qism. Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, v) «aybdorga ayon bo'lgan o'jiz ahvoldagi shaxsni» bandiga quyidagi o'zgartish kiritish taklif etiladi:

v) Aybdor uchun o'jiz holatda ekanligi aniq bo'lgan voyaga yetmagan yoki boshqa shaxsga nisbatan;

«98-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish» moddasini quyidagi 2-qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

2-qism. **O'sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsni o'ldirishi –**

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

«100-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish»

moddasini quyidagi 2-qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

2-qism. O'sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsni o'ldirishi, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

«101-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish» moddasini quyidagi 2-qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

2-qism. O'sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsni o'ldirishi, –

uch yildan besh yil yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

«102-modda. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish» moddasining 2-qismini quyidagicha to'ldirish taklif etiladi:

2-qism. Ehtiyotsizlik orqasida **voyaga yetmagan shaxsni** yoki ikki va undan ortiq odam o'ldirish

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, keltirib o'tilgan taklif va amaliy tavsiyalarning joriy etilishi jamiyatimizda huquqiy samaradorlikni ta'minlab, jazoning muqarrarligiga bo'lgan e'tiborni oshiradi. Bu esa, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlar salmog'ini kamaytirish va O'zbekistonda barqaror va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishda ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi. – Toshkent: Adolat, 2009.
2. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasi [https://nrm.uz/contentf?doc=371783_inson_huquqlari_bo'yicha_evropa_kvenciyasi_haqida](https://nrm.uz/contentf?doc=371783_inson_huquqlari_bo%E2%80%98yicha_evropa_kvenciyasi_haqida)
3. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 30.06.2024 yil // <https://president.uz/uz/lists/view/7361>
4. Tursunova M.B. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklar profilaktikasi // Eurasian journal of technology and innovation Volume 2, Issue 2, February 2024 ISSN 2181-2020 Page 96-102
5. Социология молодёжи: Учебник / Под ред. В.Т Лисовского. – Санкт-Петербург, 2016.
6. Безрукова О.Н. Социология молодёжи: Учебно-методическое пособие. Факультет социологии СПбГУ. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2015. – С. 35.
7. Musayev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot muammolari: Monografiya. – T.: "Sharq", 2011. – B.228.; Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2006. – B.38.
8. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik / Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir-yu.f.n., dos. B.J.Axrorov. – T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.
9. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyatini tasdiqlash haqida" 2023-yil 31-oktyabrda ro'yxatdan o'tgan buyrug'i, ro'yxat raqami 3470 <https://www.lex.uz/uz/docs/6649238>

10. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar / Rustambayev M.H., Axrarov B.J. va boshqalar. Ma'sul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustambayev. – T.: TDYUI, 2007. – 574 b.
11. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri (PhD) ... dis. – T., 2019. – B.28,110; 220.; Fazilov I.Yu. Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: Yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2016. – B.30.
12. Abduxaliqov M.A., Payzullayev Q., Abduqodirov Sh.Y. Jinoyat -ijroiya huquqi: Darslik. –T.: TDYUI, 2005. – 142 b.
13. Бабичев А. Г. Преступления против жизни: теоретико-прикладные проблемы и доктринальная модель уголовного закона: Автореф. дис. ... д-ра. юрид. наук Наук. – Казань, 2019. – С.32–35
14. Sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan ayrim turdagi jinoyatlarning hududlar kesimi bo'yicha dinamikasi // <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>
15. Доронина Е. Б. Беспомощное состояние потерпевшего в структуре состава убийства: теория, закон, практика: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Челябинск, 2004. – С 11-17.; Rustambayev M.X. Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2004-yil 24-sentyabrdagi 13-son qarori <https://lex.uz/docs/1455961>
17. Иванова Л. М. Криминологическая характеристика корыстно-насильственных преступлений, совершаемых в отношении несовершеннолетних, и их предупреждение: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Иркутск, 2007. – 33 с.
18. Уголовный кодекс Франции (в редакции от 01.01.2014 г.) <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14297>
19. "Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 31.07.2025) УК РФ Статья 105. Убийство https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/5b3e04338020a09b25fe98ea83bc9362c8bc5a76/

